

FALSAFA BA ХҮКҮК

1
2024

**FALSAFA va HUQUQ
ФИЛОСОФИЯ и ПРАВО
PHILOSOPHY and LAW**

YOSHLAR ONGINING TRANSFORMATSIYALANISHUVI JARAYONLARI

T.X.Tashmetov –

ChDPU dosenti, falsafa doktori (PhD)

Yangi O'zbekiston strategiyasi "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" bosh g'oyasi asosida yosh avlod ongi va qalbiga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularning har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilimlarni egallagan va yuksak ma'naviyatli kasb egasi bo'lishiga alohida ye'tibor qaratilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganlaridek: "Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo'lgan faoliyat ko'lamini va salmog'i, ahamiyati va yo'nalishlari, bu jabhada ham natijadorlikka yerishish zarurati O'zbekistonning 2022-2032 yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda"[1, 272-273]. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy xurujlardan himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ogohlikka da'vat etuvchi asarlari, ma'ruzalari, nutqlari va tashabbuslari yot ta'sirlarga qarshi ma'naviy qurol va himoya uchun ma'naviy qalqon hisoblanadi. Bu kabi yot bo'lgan turli mafkuraviy xurujlarning yoshlarimiz ongi va ichki dunyosini egallashga qaratilgan harakatlari tobora kuchayib, keng quloch yoymoqda. Davr mazkur xurujlardan yoshlarimizni asrash va ularga qarshi turish hamda kurashishni umumdavlat ahamiyatiga molik vazifa qilib qo'yimoqda. Shu bilan birgalikda, ma'naviyatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarni, xususan, yosh avlodni vatanparvarlik, yel-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga odamiylik fazilatlarini joylashdek olijanob ishlarda ko'zga tashlanadi.

Shuni aytib o'tish zarurki, ma'naviyat fuqarolarning kundalik ish va bunyodkorlik faoliyatida ishonch va ruh bag'ishlovchi omildir. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatidagi transformasiyalashuv asosidagi o'zgarishi sodir bo'ladi. Bu jarayonda esa uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. G'oya jamiyatda fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi. Shu bilan "davlat mafkurasi"dan tubdan farq qiladi. G'oya mamlakat oldida turgan yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatdagi har bir odamni birlashtirishga, safarbar etishga, jipslashtirishga xizmat qiladi. Ma'naviyat millatning ichki rivojlanishi va kelajak sari intilishi hamda kurashlarining markazidagi beqiyos kuch bo'lib, millatning qaysi yo'llar va qaysi maqsadlar sari olg'a intilishini ta'minlash orqali transformasiyalashuv jarayonlari sodir bo'ladi. Natijada, "transformasiya" barcha sohalaridagi kabi ma'naviyat fanining rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

"Transformasiya – (lot. o'zgarish, aylanish) totalitar siyosiy tizimlarning demokratik siyosiy tizimlarga o'zgarishi jarayoni"[2]dir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, transformasiya "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" jarayoni bo'lib, ma'naviyatning transformasiyaga uchrashi natijasida esa unda sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Turli xil axborot vositalari, tovarlar va zamonaviy san'at namunalari orqali kirib kelayotgan va milliy madaniyatimizga ta'sir qilib, unda muayyan o'zgarishlarni paydo qilayotgan turli darajadagi madaniy yangiliklar transformasiyaga sabab bo'lmoqda. Transformasiya jarayoni ma'naviyatning takomillashuviga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Global o'zgarishlar davrida yoshlar ma'naviyatining yuksaltirish transformasiyalanishi quyidagi dolzarb jihatlarga ega:

birinchidan, yoshlarda mustaqil fikrning turli-tumanligi bilan bog'liq jihat. Bunda o'zining mustaqil fikriga, ma'naviyatiga ega yoshlar bilan bir qatorda mustaqil fikrga ega bo'lmagan, ma'naviy tahdidlarning ta'siriga tushib qoladigan "taqlidchi" yoshlarning ham mavjudligi bu sohadagi jiddiy muammolardan biridir;

ikkinchidan, ayrim yoshlar ongida milliy ma'naviyatning negizlaridan uzoqlashish, milliy madaniy meros, urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotdagi ahamiyatini etarlicha baholamaslik, qadriga etmaslik holatlari uchramoqda. Ayrim yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarni yemas, ortiqcha moddiy sarf-xarajatlar bilan bog'liq qadriyatlarning jozibasi, buyumparastlik ustun bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, global o'zgarishlar davrida axborot xuruji yoshlar ongiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa g'oya va maqsadning asosiy tushunchalari, tamoyillariga tayangan holda “fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat bilan javob berish”[3] mas'uliyatini yuklaydi.

Shunday qilib, bugungi global o'zgarishlar davrida yoshlar ongining o'zgarishi va transformasiyaga uchrashi natijasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tendensiyasida quyidagi jihatlarga ham alohida ye'tibor qaratish zarur:

birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida jaholatning barcha ko'rinishlarining mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirib borish va unga qarshi choralar dasturini ta'limiy jarayon bilan uyg'un holda yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish jarayonida milliy an'ana va qadriyatlardan keng foydalanish, shuningdek, bu jarayonda milliy an'ana va qadriyatlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

uchinchidan, jaholatga qarshi kurash vositasi sifatida oila, mahalla va ta'lim muassasalari institutlarida yoshlarni o'z kelajagiga yo'naltirishi uchun johillik sifatlarini inkor eta oladigan barkamol inson qiyofasini shakllantirish;

to'rtinchidan, jaholatning salbiy illatlarini namoyish etish va boshqa usullardagi targ'ibot ishlarini olib borish;

beshinchidan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishda ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalana olish.

Mazkur jihatlar ye'tiborga olingan taqdirda ma'naviyat vositasida xalq, millat, davlatning rivojlanish yo'nalishi yaqqol ko'zga tashlanib, uning istiqboli namoyon bo'la boshlaydi va yoshlar ongida transformatsiyalanish jarayonlari sodir bo'ladi. Milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiyasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy o'zlikni anglash bilan sintezlashuvi va uning bugungi turmush tarzimiz hamda tafakkur tarzimizda namoyon bo'lish jarayoni transformatsiyalanishga uchraydi. Shuning uchun ham ma'naviyat sivilizatsiyasi jahon tarixida xalqlarning taraqqiy etishi, ularning g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan ma'naviyat asosida qiyin sinovlardan o'tgan. Ma'naviyat ularni Vatanga bo'lgan sadoqati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan. Natijada, yevolyutsion rivojlangan mamlakatlarda ma'naviyat taraqqiyotga undovchi kuch sifatida xalqlarning milliy qadriyat va xususiyatlariga bog'lab singdirilgan. Uning qudratli mafkuraviy ta'siri mamlakat aholisini umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirgan.

Shu o'rinda, “evolyusiya” tushunchasining ma'nosiga ye'tibor qaratsak: “Yevolyusiya (yun. yebolitio – avj oldirish, rivojlantirish) – revolyutsiya (inqilob)ga va inqilobiy yo'lga qarshi bo'lgan tadrijiy rivojlanish usuli to'g'risidagi falsafiy ta'limot”[4] sifatida ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'naviyatimizga yot bo'lgan g'oyalar jamiyat hayotini izdan chiqaradi, hamda yoshlarning ma'naviy qashshoqlanishiga sabab bo'ladi. Yevolyutsion o'tish jarayoni, hozirgi davrda zamonaviy texnologik o'zgarishlar, ma'naviy sohalar tizimini isloh qilish orqali ro'y bermoqda. Bu esa o'z navbatida, mustaqqiligimizni yanada mustahkamlash, “Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot barpo etish” hamda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” bosh g'oyasi asosida jahon mamlakatlari tadrijiy taraqqiyotining ilg'or yutuqlariga asoslanishi lozim. Ana shundagina biz yevolyutsiya tadrijiy rivojlanish asosida mustaqil fikrlaydigan ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashga yerishamiz. Zero, bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning har bir nutqi va ma'ruzalari, maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori yekanligi qayta-qayta ta'kidlangan. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagicha fikr bildiradi: “Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq”[1] – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, tarbiya inson ongi mahsulidir. Shuning uchun ham ongni o'zgartirmasdan turib, yangi jamiyat barpo etish va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga yerishishimiz juda murakkab kechadi. Shu bois,

yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlar ruhida barkamol inson sifatida tarbiyalash yangi davlatchiligimizning asosi hisoblanib, ular ongidagi transformatsiyalashuv jarayonlarini ta'minlab boradi.

Shu jihatdan, O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati yevolyutsiya tadrijiy rivojlanish asosida tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni yeng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Shuning uchun, bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yo'qori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan ma'naviy barkamol avlodlar zarurdir. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga yerisha olmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", degan o'gitiga amal qilishimiz zarur.

Yendilikda, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki yevolyusion jihatdan olib qaralganda taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk shaxslar hal qiladi. Shunday yekan, texnika va texnologiya sohasidagi bilimi, murakkab avtomatikaga asoslangan texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan parallel rivojlanishi lozim. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'imiz lozimligi zamon, mustaqil taraqqiyotimizning muhim jihatlaridan biridir.

Shuni aytib o'tish zarurki, bugun dunyoning turli joylarida bir tomonlama shakllangan ijtimoiy-madaniy tizimlar buzg'unchi g'oyalarning kelib chiqishi, ularning tarqalishiga zamin hozirlamoqda. Vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralar xalqlar azaliy madaniyatining yemirilishiga, jamiyat hayotida salbiy hodisalarning yanada kuchayishiga sabab bo'lgan. Vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralarga aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, vandalizm, genotsid, "demokratiya yeksporti", diniy yekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, ksenofobiya, ludomaniya, mahalliychilik, millatchilik, missionerlik, nasizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" terrorizm, fashizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm va hokazolar misol bo'lib, ular umuinsoniy taraqqiyotga ziddir. Shu o'rinda buzg'unchi g'oyalardan biri "ommaviy madaniyat" haqida fikr bildirib o'tsak. "Ommaviy madaniyat" milliy g'oyaga zid bo'lgan axloqsizlikning targ'iboti shaklida hayotimizga kirib kelmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir jamiyat, davlat o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yar yekan, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ham o'ziga xos va mos andozasini ishlab chiqishni talab etadi. O'zbekiston ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning o'ziga xos shaklini ishlab chiqdi. Ma'naviyatni shakllantirish hamda uni xalqimiz ongi va qalbiga singdirish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Taraqqiyot istiqbollari ko'p jihatdan yoshlarimiz irodasi g'oya atrofida nechog'lik yaxshi jipslashishiga bog'liq. Ma'naviyat bo'lmasa, o'zimizni va o'zligimizni yo'qotamiz. Aksincha, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish orqali esa tinchlik, birdamlik va farovonlikka yerishish mumkin. Shu boisdan, ma'naviyatni har bir inson, ayniqsa, yoshlarning qalbi, ongi va ichki dunyosiga singdirish, ularda ma'naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish orqali transformatsiyalashuvini ta'minlab borish bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – B.440.
2. Raximov S., Tashmetov T.X. Milliy g'oya: Savollar va javoblar. –Toshkent: O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2021. – B.180.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'ofur G'ulom, 2010. – B. 646.
4. Falsafa qomusiy lug'ati. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq", 2004. – B.112.

REZYUME:

Ushbu maqolada, mamlakatimizda evolyutsion o'tish jarayoni, hozirgi davrda zamonaviy texnologik o'zgarishlar, ma'naviy sohalar tizimini isloh qilish orqali ro'y berayotganligi tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, ma'naviyatning transformatsiyon jarayonlariga uchrashi natijasida barkamol insonlar ongida ezgulikka yo'g'rilgan bunyodkor g'oyalarning yanada shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: konsepsiya, g'oya, tafakkur, mafkura, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, transformatsiya, evolyutsiya, tendensiya, intellektual, global, internet, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, komil inson.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется процесс эволюционного перехода в нашей стране, современные технологические изменения, реформирование системы духовных сферы. Также в статье освещаются вопросы того, как духовность служит формированию и развитию творческих идей, результате трансформационных процессов.

Ключевые слова: концепция, идея, мышление, мировоззрение, духовность, просвещение, культура, трансформация, эволюция, направление, интеллектуальное, глобальное, интернет, социальные сети, общение, совершенный человек.

RESUME:

This article analyzes the process of evolutionary transition in our country, modern technological changes, reforming the system of spiritual spheres. The article also highlights the questions of how spirituality serves the further formation and development of good creative ideas in the minds of mature people as a result of a collision with transformational processes.

Key words: concept, idea, thinking, worldview, spirituality, education, culture, transformation, evolution, direction, intellectual, global, Internet, social networks, communication, perfect person.